

STUDENT ACTIVITY ASSESSMENT CONTENT

Shodiyeva Jamila Kholboyevna,
SVXTXQTMOHM teacher

Annotation

This article provides detailed information on the assessment of cognitive activity of primary school students, assessment of students' knowledge, determining the quality of acquired knowledge, assessment criteria

Keywords: knowledge, activity, mastery, verification, motivation, evaluation, criteria, control, skill, qualification

Ta'limda o'qituvchining maqsadi o'quvchilar nimani bilishini va nimani bila olishini aniqlash, ularning kamchiliklarini va nuqsonlarini ochish va keyingi o'qishlarini samarali qilish uchun ularning kuchli tomonlariga asoslanib, zaif tomonlarini kuchaytirish va rivojlantirishdir.

O'quvchilarning bilish faolligini tekshirish bolalar tamonidan o'zlashtirilgan bilimning sifatini aniqlash, ularni o'quv dasturida belgilangan materiallarni izchil va puxta o'zlashtirib olishga da'vat etish vositasidir.

O'qituchi o'quvchilarni faolligini tekshirish orqali o'quvchining o'quv materiallarini qanday idrok etib tushunganligini, qanday fikr yuritayotganligini, o'tilayotgan materiallarni qanday o'zlashtira olayotganligini aniqlaydi hamda keyingi o'quv materiallarini o'rganish yo'llarini belgilaydi, ularning o'qishga munosabatini, tirishqoqligini, o'ziga talabchanligini, bilimga, fanga, bo'lgan qiziqishini oshirishga imkon beradi. O'quvchilarni bilish faoliyatlarini tekshirishning yana bir muhim tamoni shundaki, ana shu jarayonda o'quvchilarning bilimlari va bajargan ishlaridagi kamchiliklar sezilib qoladi va mazkur kamchiliklarning sabablari aniqlanadi, kamchiliklarni bartaraf etish choralari belgilanadi. Bilimlarni tekshirish va baholash o'quvchi bilimidagi kamchiliklarni to'ldirishga, o'rganilayotgan masalaning asl mohiyatini anglashga yordam beradi va materialni tushinishga keng imkoniyat yaratadi.

O'qituvchi boshlang'ich sinf o'quvchilarining bilimiga baho qo'yish vaqtida o'quvchining materialni o'zlashtirish saviyasi, bola taffakurining o'sish darajasi, zehnining rivojlanishi kabi xususiyatlarini hisobga oladi. O'quvchilarning ishlash surati, qobiliyati, o'qishga ishtiyoqi, nutqning o'sish darajasi o'rganiladi. Baho qo'yish orqali o'quvchilarni rag'batlantirish, ayrim o'quvchilarda uchraydigan qo'rqqoqlik, uyatchanlik, tortinchoqlik, o'z kuchiga ortiqcha baho berish, ishonmaslik, shoshqaloqlik, kamgaplik kabi xususiyatlari bartaraf etiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarning bilish faoliyatlarini baholashning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, bunda o'quvchilarda o'qishga, o'z yutuqlari va kamchiliklariga nisbatan munosabat shakllanadi, qiyinchiliklarni yengish istagi tug'iladi. Baho olish o'quvchi sifatida, shaxs sifatida o'ziga nisbatan muayyan bir munosabat borligini hosil qiladi.

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarning bilish qobiliyatlarini tekshirish va nazorat qilish izchil, doimiy tarzda bo'lishi shart. Bu talabga rioya etilmasa, o'quvchilarning o'qishga nisbatan munosabati yomonlashadi, bilimlarning sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. O'quvchilarni bilimlarini baholash individual xarakterga egadir. Har bir o'quvchi uning bilish faoliyati baholanayotganligini tushinishi kerak. Shu jihatdan o'qituvchi o'quvchilarning baholashda adolatli, haqqoniy bo'lishi lozim. Har qanday adolatsizlik, o'qituvchining bilimga baho qo'yishdagi xatosi o'quvchilarga salbiy ta'sir etadi, ularda o'z kuchiga ishonchni yo'qatadi, o'qishga bo'lgan ishtiyoqni sundiradi. Oqibatda o'qituvchining tarbiyaviy ta'siriga putur yetadi.

O'quvchilarning o'quv faoliyatlarini baholashning demokratlashtirish bilim, ko'nikma va malakalarni nazorat va baholashdan emas, balki baho yordamida o'qishga undashning eskirgan shakllaridan voz kechishni talab qiladi. O'quvchilarning o'quv mehnatini rag'batlantirishning yangi usullarini izlash, ta'lim va tarbiya sohasida kuch to'plab borayotgan shaxsiy foyda tamoyili yangicha yondashuvlarni belgilab beradi. Bu jarayonda baho rag'batlantirish vositasi sifatida bir qator afzalliklarga ega bo'ladi. Birinchi navbatda bahalovchi fikrlar qo'llanishi mumkin bo'lgan tashxislash natijalari shaxsni o'z darajasini belgilashga ko'maklashadi, bu esa raqobatli ta'lim sharoitlarini yaratishda muhim omil sanaladi. Ta'limning ixtiyoriyligi tamoyili bilan boyitilgan baho o'tmishda ko'plab o'quvchilar uchun majburiy ta'limning zaruriy vositasidan shaxsiy baho – insonning jamiyatdagi mavqiy ko'rsatkichini aniqlash usuliga aylanadi. O'qituvchi nazorat va hisobga olishni to'g'ri tashkil etsa, ta'lim jarayonining samaradorligi ortadi. Buning uchun o'qituvchi o'quvchining o'quv materiallarini o'zlashtirish darajasini aniqlab borish lozim.

O'qituvchi o'qitish bilan bir vaqtda o'quvchilarning o'rganilayotgan mavzuni qanday qilib idrok etishini, esda saqlashga harakat qilishini va uni amalda qo'llash malakalarini egallashini hisobga olib borishi kerak. O'zlashtirishni hisobga olish o'quvchilarning bilish faoliyatini rag'batlantirib, ma'lum bir harakatlarni bajarish uchun uning irodasini tarbiyalaydi. To'g'ri tashkil etilgan ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirishlarini aniq baholay oladi, ularning o'z bilimlarini mustahkamlashga intilishini yanada oshiradi, aqliy va axloqiy rivojlanishiga ta'sir etadi. O'quvchilarning o'zlashtirishlarini baholash uchun ularning uyga berilgan vazifalarini bajarishini tekshirish katta ahamiyatga ega. Uy vazifalarini tekshirish o'qituvchiga o'quvchilarning o'quv ishiga bo'lgan munosabatlarini, o'rganilgan materialni qanchalik egallaganligini, uy vazifalarini bajarishdagi mustaqillik darajasini aniqlashga imkon beradi.

Baholash jarayonining asosi – o'quvchini ish vaqtida doimo kuzatib borishdir.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarini, ayniqsa, bilimlarini kundalik tekshirish, nazorat qilish va baholash ular faoliyatida muhimdir. Kundalik tekshirish, nazorat qilish o'quvchilarni o'z ustida izchil ishlashga, puxta o'zlashtirishga, mustaqillikka odatlantiradi, shuningdek, tirishqoq, uyushqoq bo'lish, javobgarlikni sezish kabi axloqiy sifatlarni shakllantiradi. Ushbu sifatlarni hisobga olib o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholash mezonlari har bir fanning maqsab va vazifalariga, shuningdek, sinfdagi o'quvchilarning o'zlashtirish darajasiga tayangan holda o'quvchilarning og'zaki javob berishlari, ko'nikma malakalariga alohida-alohida yondashiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilar bilimini baholashning quyidagi mezonlarini amalga oshirish talab etiladi.

“5” baho quyidagi hollarda qo'yiladi:

- o'quvchi qiziqishi va o'qish istagi borligi uchun mustaqil ravishda mehnat qilganida;
- o'quvchining darsdagi faolligi, mehnatsevarligi, bilimga tashnalligi aniqlanganda;
- o'quvchi materialni faollik bilan o'qituvchi rahbarligida o'zlashtirganda;
- har qanday qiyinchiliklarni yengishga, qat'iyatli, irodali bo'lishga harakat qilganda.

“4” baho quyidagi hollarda qo'yiladi:

- o'quvchi butun o'tilgan materialni bilsa;
- egallagan bilimlarini aniq namoyon eta olsa;
- jiddiy xatolarga yo'l qo'ymasa, noaniqliklarni o'qituvchining savollari yordamida bartaraf eta olsa.

“3” baho qo'yiladi, agarda:

- o'quvchi mavzuni o'zlashtirib olishga intilsa;
- turli sabablarga ko'ra yetarli ish qobiliyatiga ega bo'lmasa;
- o'qish sabablarini talab darajasida emasligi.

O'quvchilarni mavjud bilimlariga aniq va to'g'ri baho qo'yish o'qituvchining kasbiy mahoratiga bog'liq bo'ladi. Baholashda o'qituvchi o'quvchilarning o'zlashtirishini nazorat qilish, hisobga olish, tarbiyalash va rivojlantirish vazifalarini bajaradi. Nazorat qilish o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholashdan iboratdir. O'qitish vazifasi esa o'quvchilarni bilimini tekshirishda aniq ko'rinadi. Yangi mavzuni mustahkamlash jarayonida yoki uy vazifalarini tekshirishda o'quvchilarning o'tilgan mavzuni takrorlashga, ular uchun tushunarsiz bo'lgan ma'lumotlarni bilib olishlariga imkon tug'iladi. Baholashning tarbiyalash vazifasi shundan iboratki, o'quvchilar tekshirishga tayyor bo'lish uchun darslarni o'z vaqtida tayyorlaydilar, bo'sh vaqtlaridan unumli foydalanishga harakat qiladilar, intizomga o'rganadilar.

Shuningdek, tekshirish va baholash o'quvchining o'z bilimlari va qobiliyatlarini o'zi mustaqil aniqlashlariga ham yordam beradi. O'zidagi kamchiliklarni ko'ra olishga va uni tugatish yo'llarini izlashga ko'maklashadi. Uy vazifalarini haddan ziyod ko'p bo'lishi ham o'quvchilarning yuzaki dars tayyorlashiga olib keladi. Eng asosiysi, baholash shaxsni ijobiy fazilatlarini shakllantirish, yaxshi o'qishga xohish uyg'otish, o'quv ishlariga yondashishda mustaqil bo'lish, bilish faoliyatini chuqurlashtirishga qaratilmog'i lozim.

O'quvchilar boshlang'ich ta'limdayoq tabiat va jamiyat haqidagi bilimlarni har tamonlama egallash orqali turmushga, hayotga tayyorlanadilar. Shu jumladan o'zlashtirilgan bilimlarning qanday egallaganligini bilish o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda o'qituvchi o'quvchilarni bilish faoliyatini o'z vaqtida tekshiradi, hisobga oladi va baholab boradi. Buning uchun esa o'qituvchi har tomonlama yetuk, ma'lum bir maqsad asosida ishini samarali tashkil eta oladigan bo'lishi zarur.

Xullas, o'qituvchi bolalarni xulq-atvori, ish natijalarini haqqoniy baholashi va ularga o'z vaqtida yordam ko'rsata olishi hamda oilaviy ahvoli bilan qiziqishi zarur hisoblanadi. Har bir bolani shaxs sifatida shakllanishida, to'g'ri tarbiya, haqqoniy to'g'ri baho muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Азизхужаев Н.Н. Педагогические технология в подготовке учителя. Ташкент, 2000г.
2. Qosimova K. Ona tili o'qitish metodikasi. – Toshkent: "Noshir", 2009.